4. Мордовцева Т.В. На грани русской национальной идеи // Вестник Таганрогского института управления и экономики. 2016. № 2. С. 4 – 9.

SHAMSUDDIN ZAHABIYNING "DUVAL AL-ISLAM" ASARIDA TURONNING VIII ASARDAGI TARIXI BAYONINING O'ZIGA XOSLIGI

Javohir Zafarzoda
Fanlar Akademiyasi Tarix instituti kichik ilmiy xodimi
azimkulob@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada Shamsudiin Zahabiyning "Duval al-islam" asarida Turonning VIII asrdagi tarixiga oid berilgan ma'lumotlarning o'ziga xosligi va boshqa manbalardan farqli o'rinlari ochib berishga harakat qilingan. Zahabiyning asarida keltirgan Turon tarixiga doir ma'lumotlar va ularning o'ziga xosligi maqolaning asosiy bahs mavzusidir.

Kalit so'zlar. Shamsuddin Zahabiy, Ahnaf ibn Qays, haytal, Movarounnahr, Ubaydulloh ibn Ziyod, Tarix al-islam, Abu Muslim, Duval al-islam.

Arab musulmonlarining Xuroson va Movarounnahrga yurushlari Xalifa Usmon(r.a) davrlaridan boshlandi. Arab musulmonlarning Movarounnahrdagi turkiy xalqlar bilan birinchi marta to'qnash kelishi, manbalarning guvohlik berishicha, 22-hijriy (milodiy 642) yilda ro'y bergan. Ahnaf ibn Qays Kufa va Basra aholisidan iborat o'n ming askar bilan Eron shohi Yazdajird ibn Shahriyor ibn Kisroni ta'qib qilib, turkiy xalqlar bilan to'qnash keladi. Ikki tomon yuzma-yuz bo'lib, jang uchun hozirlanadilar. Ahnaf yakkama-yakka jangda uchta turkni halok qiladi. Shundan so'ng turklar ortlariga qaytib ketadilar.[13]

Keyinchalik 31-hijriy (milodiy 651) yilda Abdulloh ibn Omir Ahnaf boshliq askarlari bilan Xurosonning Ko'histon shahrida Haytallar bilan jang qilgani tarixchilar solnomalarida yodga olinadi.[14] Haytal atamasi Movarounnahrdagi Buxoro, Samarqand va Xo'jand hamda ular orasidagi hududlarda istiqomat qiladigan aholiga nisbatan qo'llanilgan. Bu joylar Haytal ibn Olim ibn Som ibn Nuh (a.s.)ning ismi

[13] Muhammad ibn Jarir at-Tabariy. Tarix at-Tabariy. – Ar-Riyod: Bayt al-afkar ad-davliya, 2005. – B. 695.

[14] Abul Hasan Balozuriy. Futuh al-Buldon. – Bayrut: Dar al-kutub al-ilmiya, 1991. – B. 398-399;

bilan atalgan bo‘lib, Haytal Bobildagi tillar o‘zgarishi hodisasidan so‘ng shu joylarga kelib qolgan va bu makonlarni obod qilgan, degan qarash mavjud. Demak, yuqoridagi ma’lumotlarga suyanib, shuni aytish mumkinki, Ahnaf ibn Qays Movarounnahr turkiy qabilalari bilan to‘qnash kelgan ilk musulmon sanaladi. Ahnafning bu faoliyatlari musulmon arablarning Movarounnahrga ilk yurishlarini jadallashtirgan.

VII-VIII asrlarda Xuroson va Movarounnahr o’lkasi arab musulmonlari tomonidan deyarli to’liq egallab olinadi. Bu davr tarixini yoritiib beruvchi bir qator manbalar mavjud jumladan, Tabariyning “Tarix Rusul val-muluk” asari, Balozuriyning “Futuh al-Buldon” asari, Ibn A’sam Kufiyning “Futuh” asari, Narshaxiyning “Tarixi Buxoro” asarlarini shular jumlasidandir. Bularning orasida davr jihatdan keyinroq yozilgan bo’lsada Shamsuddin Zahabiyning “Duval al-islam” asari ham VIII asr Xuroson va Movarounnahr tarixini yoritishda muhim manba hisobalanadi.

Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon ibn Qaymaz ibn Abdulloh Shamsiddin Abu Abdulloh Damashqiy Zahabiy (محمد بن أحمد بن عثمان بن قيماز بن عبد الله شمس الدين أبو عبد الله الدمشقي الذهبي.) 1274-yili Damashq shahrida tug’ilgan.(1274-1348).[15]

Shamsiddin Zahabiy 1274 yilda Suriyaning Damashq shahrida kelib chiqishi turkiy bo‘lgan oilada tavallud topgan. Zahabiy ismi esa otasining kasbiga nisbat berilgan bo‘lib, «zargarning o‘g‘li» degan ma’noni anglatadi. [16]

Shamsiddin Zahabiy 75 yil umr ko‘rdi va islom olamida hadis ilmining sultoni, qomusiy ilmga ega tarixchi, shajarashunos va shayxul islom sifatida nom qozondi. 73 yoshida ko‘z nuridan ayrildi va ikki yildan so‘ng foniy dunyoni tark etdi. Uchta farzand qoldirdi: katta qizining ismi Amat al-Aziz, ikkita o‘g‘lining ismi Abdulloh va Abu Hurayra Abdurahmon. Ikkinchi o‘g‘li keyinchalik hadis ilmi peshvosiga aylanib, Ibn Nasriddin ad-Dimashqi va Ibn Hajar kabi olimlarga dars berdi, otasidan eshitgan ko‘plab hadislarni rivoyat qildi.

[15] Ibn Hajar Asqaloniy. Al-mo‘jam. 400 -bet

[16] Fozia Bora, *Writing History in the Medieval Islamic World: The Value of Chronicles as Archives*, The Early and Medieval Islamic World. London, 2019, p. 38.

Shamsiddin Zahabiy hadis ilmi bilan shug‘ullanishni 18 yoshidan boshladi va Balabak, Hims, Hama, Aleppo, Tripoli, Nabulus, ar-Ramla, Kohira, Iskandariya, Quddus, Hijoz va boshqa ja’mi 30 ta turli shaharda ta’lim oldi. So‘ng Damashq shahriga qaytib, hadis ilmidan dars berdi, islom olamida mashxurlikka erishgan kitoblarni yozdi.[17]

Shamsiddin Zahabiyning mashxur asarlari:

1. Tarix al-islam. Islom dinining eng katta bibliografik ensiklopediyasi. 1326 yil arab tilida Damashqda yozilgan. Asar XX asr boshlaridan zamonaviy tillarga tarjima qilina boshlangan. Asarning to‘liq va tanqidiy nashrlari 1969 yilda Quvaytda, 1976 yil Qohirada Bashshar Avvad Maruf tomonidan, 1990-yil Bayrutda Umar Abdusalim Tadmuri muharirligida nashr qilinadi.
2. **Al-Ibar bi Axbar Man Abar**. Olimlar haqida keng bibliografik tarix.
3. **Duval al-Islam.** Siyosiy shaxslar va voqealar haqida bibliografik tarix.
4. **Siyar A’lam an-Nubala.** Hajmiga ko‘ra “Tarix ul-Islam”dan kichikroq, ammo yangi ma’lumotlar bilan boyitilgan o‘ziga xos qomusiy kitob. Asar arab tilida XIV asr 50-yillari boshida Damashqda yozilgan. Asar yigirma besh juzdan iborat bo’lib, muqaddima qismi va xotima qismlarini ham o’z ichiga oladi.

“Siyari a’lami nubalo”da diyorimizdan yetishib chiqqan qator allomalar haqilarida qimmatbaho ma’lumotlar mavjud. Yurtimizdan yetishib chiqqan ulug’ olimlarning ibratli hayotlari va ilmiy faoliyatlari haqida ma’lumotlar keltirilgan bo’lib, muallif asarida Abdulloh ibn Muborak, Abdulloh ibn Ubay Xorazmiy, Abu Abdulloh Buxoriy, Abu Ja’far Termiziy, Dabusiy, Marg’inoniy, Imom Saraxsiy, Najmiddin Kubro, Abu Nasr Forobiy, Ahmad al-Farg’oniy, Qaffol Shoshiy kabi olimlarning biografik xabarlarini keltrib o’tgan.[18]

5. **Tazkirat al-Huffaz.** Hadis olimlari tazkirasi. Abu Bakr Siddiqdan boshlab to Az-Zahabiy davrigacha o‘tgan hadis roviylari va olimlari hayotiga bag‘ishlangan asar. Al-Suyuti bu kitobni o‘z zamondoshlari bilan boyitib, «Tabaqat al-huffaz” asarini yozgan.

[17] **محمد بن أحمد الذهبي تذكرة الحفاظ**

[18] Shamsuddin az-Zahabiy. Siyar a’lam an-nubala. J.10. – Bayrut: Dar al-fikr, 1991. – B. 278, 291

6. **Al-Muin fi tabaqat al-Muhidissin,** hadis olimlari haqida mo‘’jaz darslik.

7. **Tabaqat al-qurra,** qur’on olimlarining hayotiga bag‘ishlangan kitob.

8. **Tazhib al-Kamol,** Al-Muzzining «Al-Kutub al-Sitta”da nomi uchragan hadis roviylari biografiyasiga bag‘ishlab yozgan 35 kitobdan iborat asariga yozilgan qisqartirilgan sharh.

9. **Al-Kashif fi Marifa man lahu rivaya fi al-Kutul al-Sitta.** “Tazhib”ning qisqartirilgan sharhi.

Zahabiyning ilmiy faoliyati XIII asrning 90-yillaridan boshlanadi. Eng ko’p yozgan asarlari tarix va hadis to’g’risida bo’ldi. “Duval al-islam” asari Zahabiyning umumiy tarix yo’nalishida yozilgan “Tarix al-islam” asaridan keyingi eng mashhur asaridir.

Asar arab tilida XIV asr birinchi choragida Damashqda umumiy tarix yo’nalishida yozilgan.

Asar muallifning tashabbusi bilan musulmon davlatlari tarixini bayon etish maqsadida yozilgan.

Asar muallif tomonidan ilk xalifa Abu Bakr davridan boshlangan bo’lib, hijriy besh yuzinchi yil(1107)ga qadar bo’lgan musulmon davlatlari asosan Yaqin Sharq, Arab xalifaligi tarixi bayon etilgan. Asarm muqaddima qismi va xotima qismlarini ham o’z ichiga oladi.

Asarning qo’lyozma nusxasi Misrdagi Aleksandriya kutubxonasida saqlanadi. 2006-yilda Bayrutda nashr etilgan nusxasi ham mavjud. Asar 2006-yilda Bayrutdagi “Dar al-kutub al-ilmiyya” nashriyotida Hasan Ismoil Marva va Mahmud Arnaut tomonidan to’liq holatda nashr etilgan.

Zahabiy asarni yozishda o’zining

1. “Tarix al-Islom” asaridan foydalangan.

Shu bilan birga muallif asarni yozishda quyidagi manbalardan ham istifoda etgan:

1. Ibn Al-Adim “ غية الطلب في تاريخ حلب” “G’oya at-talab fi tarix Halab”
2. Ibn Asokir “ تاريخ مدينة دمشق” “Tarix madina ad-Damashq”

3. Tabariyning "Tarixi Tabariy"

4. "Al-Kamil fi-t-tarix" asari muallifi Ibn al-Asir,

Asardan manba sifatida ko'pchilik tarixchilar, masalan,

1. "Tarix al-Xulafo" asari muallifi Jaloliddin Suyutiy,

2. "Tabaqot shofe'iyya al-kubro" asari muallifi Tojiddin Subkiy kabi mualliflar o'z asarlarini yozishda undan manba o'laroq foydalanganlari ma'lum.

Shamsuddin Zahabiyning "Duval al-Islam" asarining ahamiyatli tomoni unda Turon o'lkasi va O'zbek davlatchiligi tarixi haqida bir qator ma'lumotlar uchraydi.

Muallif asarda ummaviylar davrini bayon etishida aynan arablar tomonidan Turon shaharlarining egallanishi, Qutayba ibn Muslimning faoliyati, mahalliy aholi bilan tuzilgan sulh shartnomalari haqida batafsil ma'lumotlar bergan.

Shamsuddin Zahabiyning fikricha, musulmonlar va turklar orasidagi to'qnashuv 47-hijriy (milodiy 667) yilda bo'lib o'tgan. Turklar qo'shin yig'ib, jangga chiqishgan va Abdulloh ibn Savvor Abdiy boshlik musulmonlar ustidan g'alaba qozonganlar.[19]

Zahabiy Xuroson voliysi 25 yoshlik Ubaydulloh ibn Ziyodni Movarounnahrga kelgan ilk qo'mondon sifatida esga oladi: "54-hijriy (milodiy 673) yilda Ubaydulloh ibn Ziyod Jayhunni kechib o'tib, tuya mingan holda Buxoroga kirib keladi. U Jayhunni kechib o'tgan eng birinchi arab sifatida tarixda qolgan. [20] Bu voqea Ibn Jarir Tabariyning asarida boshqacha ma'lumot berilgan unga ko'ra Movarounnahrga ilk harbiy harkat olib borgan qo'mondon sifatida Hakam ibn Amr ko'rsatiladi. [21]

Aslida Tabariy va Zahabiyning rivoyatlari orasida qarama-qarshilik va ziddiyat yo'q. Buni Ibn Jarir Tabariyning quyidagi so'zlaridan ham bilib olsa bo'ladi: "Ubaydulloh daryoni kechib, tuya mingan holda Buxoro tog'iga keldi. U daryoni kechib, qo'shin bilan Buxoro tog'iga kelgan ilk kishidir. Ubaydulloh Buxoroning Romitan, Nasaf va Baykand shaharlarini fath qiladi".[22] Demak, Ubaydulloh ibn Ziyod Muoviyaning buyrug'i bilan rasmiy ravishda qo'shin tortib, Movarounnahrga kelgan ilk arab-musulmon qo'mondon sanaladi. Hakam ibn Amr va Rabi' ibn

[19] Shamsuddin Zahabiy. Duval al-islam. J.1. – Bayrut: Dar sodir, 2006. – 38.
[20] Shamsuddin Zahabiy. Duval al-islam. J.1. – Bayrut: Dar sodir, 2006. – 44.
[21] Ibn Jarir at-Tabariy. Tarix at-Tabariy. – Ar-Riyod: Bayt al-afkar ad-davliya, 2005. – B. 952.
[22] Ibn Jarir at-Tabariy. Tarix at-Tabariy. – Ar-Riyod: Bayt al-afkar ad-davliya, 2005. – B. 952.

Ziyodlarni esa, Movarounnahrga qo‘shinsiz kirib kelgan ilk arab-musulon qo‘mondonlar, deyish mumkin.

Yana asarda 86-hijriy (milodiy 705) yilda Qutayba ibn Muslim Termizni egallab, Nasr ibn Sayyorni Termiz voliysi etib tayinlagani ham bayon etiladi.[23]

89- Hijriy (milodiy 707) yilda Qutayba ibn Muslim Buxoroga yurish qilgani bunga sabab esa Hajjojdan kelgan xatda unga shunday buyruq berilgani Zahabiy tomonidan zikr etilgan. Hijriy 90(milodiy 709) –yilda Buxoro Qutayba ibn Muslim tomonidan fath etiladi. [24]

Zahabiyning bu asarining yana bir ahamiyatli jihati muallif asarining “Samarqand fathi” bo’limida Qusam ibn Abbos r.a shahid bo’lishlari haqida bayon etib, u kishining aynan Samarqandda dafn etilganliklari haqida qimmatli ma’lumot keltiradi.[25] Ma’lumki, bu borada tarixchilar orasida ikki xil qarash mavjud bo’lib, ba’zilar Qusam ibn Abbosning qabri Marvda desa, basilar Samarqandda degan fikrni qo’llashadi. Ko’rinib turubdiki Zahabiy bu borada Samarqand fikrini qo’llab quvvatlaydi va shu fikrni o’z asarida bayon qiladi.

Shu bilan birga asarda Abu Muslim haqidagi ma’lumotlar ham mavjud bo’lib, ummaviylar sulolasining xilofatdan ketishida uning sa’y harakatlari aniq bayon etib berilgan.

“Duval al-islam” asarining o’ziga xosligi bunda muallif davriy jihatdan keyinroq ya’ni XIII- XIV asrlarda yashagani uchun o’zidan avvalgi mualliflarning asarlaridan unumli foydalana olgan. Shu bilan birga undan oldin yozilgan manbalardagi xatoliklar hamda sana va shaxs nomlaridagi larni turli manbalar orqali qiyosiy tahlil qilgan holda keltirgan.

Asarning o’zbekcha va ruscha tarjimalari mavjud emas shu bilan birga asar o’zbek olimlari tomonidan deyarli o’rganilmagan. Asarda Turon tarixiga doir muhim va o’ziga xos ya’ni boshqa asarlarda uchramaydigan ma’lumotlar o’rin olgan. Shuni ta’kidlashimiz kerakki, Shamsuddin Zahabiyning “Duval al-islam” asari Turonning

[23] Shamsuddin Zahabiy. Duval al-islam. J.1. – Bayrut: Dar sodir, 2006.– B. 74-75
[24] Ibn Jarir at-Tabariy. Tarix at-Tabariy. – Ar-Riyod: Bayt al-afkar ad-davliya, 2005. – B. 1239.
[25] Shamsuddin Zahabiy. Duval al-islam. J.1. – Bayrut: Dar sodir, 2006. –B. 47.

tarixini o’rganishda muhim manba hisoblanadi va bu asarni to’liq o’rganib, uni ilmiy muomalaga joriy qilish hozirgi davr tadqiqotchilari oldida turgan dolzarb vazifadir.

GULJAHON NAVLI SHOLINI EKISH SXEMASINI XOSILDORLIKKA TA’SIRI

To‘xtasinova Gulnora Mahmudjon qizi

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistri.

Annotatsiya. Maqolada sholining “Guljaxon” navini takroriy ekin sifatida ko‘chat usulida ekish muddatlari, ekish sxemasi va ko‘chat sonining don hosiliga ta’siri xaqida ma’lumotlar berilgan.

Аннотация. В статье приведены сведения о сроках посадки риса сорта «Гульджахан» в качестве повторной культуры рассадным способом, схеме посадки и влиянии количества всходов на урожайность зерна.

Annotation. In the article, information is provided about the planting dates of the "Guljakhan" variety of rice as a repeated crop in the seedling method, the planting scheme and the effect of the number of seedlings on the grain yield.

Kalit so‘zlar: sholi, o‘simlik, unuvchanlik, quruq massa, me’yori, muddati, o‘sish, rivojlanish, hosildorlik, samaradorlik. poya va ildizning uzunligi.

Kirish. Respublikamizda aholining tez suratlar bilan ko‘payishi albatta oziq ovqat mahsulotiga bo‘lgan talabni oshiradi. Hozirgi kunda axolinig jon boshiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha guruch va guruch mahsulotlari 6,5 kg dan 10,8 kg ga oshgan. Bu borada, sholi yetishtirish texnologiyasining ayrim elementlari, jumladan navlarning biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ekish muddatlari, sxemasi, me’yorlarini aniqlash, sholini ko‘chat usulida yetishtirish borasida ilmiy izlanishlarga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Aholining sholi doniga bo‘lgan ehtiyojining yuqoriligini hisobga olgan holda navlarning biologik xususiyatlariga mos ravishda ularni tuproq iqlim sharoitlarini hisobga olib joylashtirish, yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirish doirasidagi ilmiy izlanishlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi dolzarb vazifalardan kelib chiqqan holda, ushbu yo‘nalishda dala tajribalari 2022 yil Andijon viloyatining o‘tloqi tuproqlari sharoitida sholining “Guljaxon” navini takroriy ekin sifatida ko‘chat usulida ekish muddatlarini o‘simlikning o‘sishi, rivojlanishi va don hosildorligiga ta’sirini o‘rganish bo‘yicha tajribalar olib borildi.

Tadqiqot maqsadi: Andijon viloyatining o‘tloqi tuproqlari sharoitida sholining “Guljaxon” navini takroriy ekin sifatida ko‘chat usulida ekish muddatlarini o‘simlikning o‘sishi, rivojlanishi va don hosildorligiga ta’sirini aniqlashdan iborat.

Tajriba sharoitlari va uslublari. Dala tajribasida kuzatishlar, hisoblash va tahlillar “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” O‘zPITI uslubiy qo‘llanmasiga amal qilingan holda olib borildi [Toshkent, 2007.]. Tajriba maydonidagi agrotexnik tadbirlar SHITI ning “O‘zbekiston sharoitida sholini ko‘chat usulida yetishtirish texnologiyasi bo‘yicha tavsiyalari” (2010) asosida olib borilgan.

Sholi o‘simligi parvarishlashda eng asosiy omillardan biri hisoblangan oziqlantirish, suv me’yorlarini saqlash tartibi ShITI tomonidan 2010 yilda ishlab chiqilgan agrotexnologiya hamda “Guljaxon” navi uchun tavsiya etilgan dastlabki tavsiyalar bo‘yicha olib borilgan.

Bugungi kunga kelib sholi ekiladigan maydonlar hajmi keskin qisqarib, uning hosildorligi tushib ketdi.

Sholi intensiv o‘sib rivojlanadigan qishloq ho‘jalik ekinlaridan biri bo‘lib, hosildorligi bo‘yicha donli ekinlar ichida birinchi o‘rinni egallaydi. Uning potensial hosildorlik imkoniyati yuqori bo‘lib, agrotexnik tadbirlar to‘g‘ri va oqilona olib borilganda bu ekindan barqaror ravishda 100 s/ga va undan ham yuqori don yetishtiriladi.

Respublikamizda keyingi yillarda sholining ko‘plab intensiv tipdagi yuqori sifatli, serhosil navlari yaratilmoqda. Har bir nav o‘ziga hos agrotexnik ta’lablarga ega. Ya’ni, har bir navning maqbul agrotexnikasini ishlab chikish lozim. Biroq, navlarning agrotexnikasi va urug‘chiligi borasida yetarlicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmadi. Bunday holat navlarning potensial hosildorlik imkoniyatidan to‘la foydalanmayotganimizdan dalolatdir.

Hozirgi vaqtda har gektaridan 70-100 s/gacha hosil beradigan, yuqori sifat ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan, tashqi muhitning noqulay sharoitlariga, kasallik va zararkunandalarga, yotib qolishga chidamli, yangi sholi navlarini yaratish va ularni mukammal aniq, ilg‘or qishloq ho‘jaligi texnologiyalari asosida parvarishlab, yetishtirishni takomillashtirish hamda ularni ishlab chiqarishga tezroq joriy etishni vaziyat taqozo etmoqda, bu davr talabi hamdir.

Andijon viloyati sharoitida takroriy ekin sifatida ko‘chat usulida sholi yetishtirishning turli ekish sxemalari va muddatlarini o‘simlikning o‘sib-rivojlanishiga ta’sirini o‘rganish maqsadida olib borilgan ilmiy izlanishlarda sholining ertapishar “Guljahon” navi urug‘lari tajriba tizimiga asosan, ikki xil muddatda (25 may, 5 iyun) suvda ivitilib ko‘chatzorga ekildi.

Ko‘chatxonalarga ekilgan urug‘lar oradan 5-6 kun o‘tganidan so‘ng ko‘chatlar unib chiqa boshladi va ko‘chatlar 30 kunlik bo‘lganida 25-iyun va 5-iyul kunlari 30x10x1 ekish sxemasida gektariga 333 ming tup, 30x10x2 ekish sxemasida gektariga 666 ming tup va 30x10x3 ekish sxemasida gektariga 999 ming tup ko‘chat qalinligida ekib chiqildi.

Olingan natijalarning ko‘rsatishicha, 25-iyun muddatida 30x10x1 ekish sxemasida gektariga 333 ming ko‘chat qalinligida ekilgan 1-variantda sholi doni hosildorligi aniqlanganida yillar bo‘yicha o‘rtacha 65,3 s/ga ni tashkil etganligi qayd etilgan bo‘lsa, shu muddatda 30x10x2 ekish sxemasida gektariga 666 ming tup ko‘chat ekilgan 2-variantda don hosildorligi o‘rtacha 69,1 s/ga ni tashkil etib, 30x10x1 sxemada gektariga 333 ming tup ko‘chat ekilgan 1-variantga nisbatan 3,8 s/ga, shu muddatda ko‘chatlar 30x10x3 sxemada gektariga 999 ming tup qalinligida ekilgan 3-variantda esa don hosildorligi o‘rtacha 66,8 s/ga ni tashkil etib, 30x10x1 sxemada gektariga 333 ming tup ko‘chat ekilgan 1-variantga nisbatan 1,5 s/ga gacha yuqori bo‘lganligi aniqlandi.

1-jadval

Sholining takroriy ekin sifatida ekish muddatlari, ekish sxemasi va ko‘chat sonining don hosiliga ta’siri

Var №	Ekish muddati	Ekish sxemasi	Ko'chat soni, tup/ga	O'rtacha hosildorlik, s/ga
1	25.iyun	30x10x1	333	65,3
2		30x10x2	666	69,1
3		30x10x3	999	66,8
4	05.iyul	30x10x1	333	72,5
5		30x10x2	666	77,6
6		30x10x3	999	74,3

EKF_{05}%=3,13%

Sholi ko'chatlari 5-iyul muddatida ekilgan variantlarning don hosildorligi variantlar kesimida o'rganib chiqilganida ham yuqoridagi qonuniyatlar o'z isbotini topganligi kuzatildi.

Jumladan, sholi ko'chatlari 5-iyul muddatida 30x10x1 sxemada gektariga 333 ming tup ko'chat qalinligida ekilgan 4-variantda don hosildorligi o'rganilganida, yillar bo'yicha o'rtacha 72,5 s/ga ni ko'rsatib, ko'chatlar 25.06 kuni 30x10x1 sxemada gektariga 333 ming tup qalinlikda ekilgan 1-variantga nisbatan 7,3 s/ga yuqori bo'lganligi kuzatilgan bo'lsa, ko'chatlar shu muddatda 30x10x2 sxemada gektariga 666 ming tup qalinligida ekilgan 5-variantda don hosildorligi tahlil qilinganida o'rtacha 77,6 s/ga ni tashkil etib, ko'chatlar 30x10x1 sxemada gektariga 333 ming tup qalinlikda ekilgan 4-variantga nisbatan 5,1 s/ga, ko'chatlar 25.06 kuni 30x10x2 sxemada gektariga 666 ming tup qalinlikda ekilgan 2-variantga nisbatan esa 8,5 s/ga yuqori bo'lganligi kuzatildi.

Ko'chatlar 5-iyul muddatida 30x10x3 ekish sxemasida gektariga 999 ming tup qalinshlikda ekilgan 6-variantda don hosildorligi o'rganilganida yillar bo'yicha o'rtacha 74,3 s/ga ni tao'kil etib, shu muddatda ko'chatlar 30x10x1 sxemada gektariga 333 ming tup qalinligida ekilgan 4-variantga nisbatan don hosildorligi 1,8 s/ga, ko'chatlar 25-iyun kuni 30x10x3 sxemada gektariga 999 ming tup ko'chat qalinligida ekilgan 3-variantga nisbatan esa mos ravishda 7,5 s/ga yuqori bo'lganligi qayd etildi.

Don hosildorligi bo‘yicha olingan natijalardan ko‘rish mumkinki, sholining “Guljaxon” navi ko‘chatlarini 25-iyun muddatida ekilgan variantlarga nisbatan 5-iyul muddatida ekish barcha ekish sxemalarida ham yuqori natija ko‘rsatganligi ma’lum bo‘ldi.

Tajribalar olib borish mobaynida, ekish sxemalari va muddatlarini sholi o‘simligi hosil elementlarini shakllanishiga katta ta’siri borligi aniqlandi, ya’ni 1 m^2 dagi ko‘chatlar sonini ortishi hosil elementlarini shakllanishiga ularning pishib yetilish darajasini pasayishiga olib kelgan va natijada hosildorlik 6,8-7,4 s/ga pasayib ketganligi aniqlangan.

Tajriba natijalaridan shuni xulosa qilish mumkinki, Andijon viloyatining o‘tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida sholining “Guljaxon” navini iyul oyining birinchi dekadasida gektariga 666 ming tup ya’ni 30x10x2 ekish sxemasida ko‘chat qilib ekib eng yuqori hosil olingan.

Ushbu tadqiqot natijalaridan ko‘chat usulida sholi yetishtirishning iqtisodiy jihatdan samarali ekanligini, hamda xo‘jaliklarni moliyaviy iqtisodiy faoliyatini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etishini alohida ta’kidlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullaev A., M.Sattorov va boshqalar Sholi ekish bo‘yicha tavsiyalar. 2014 .B.8-17.

2. Jumanov Z.N., Maxmudova S.Sh., Egamnazarov A. Ko‘chat usulida sholi yetishtirish.//. Uzbekiston qishloq xujaligi. 2002. №-7.19-b.

3. Костина С.С. Признаки качества риса, обусловленные сроками уборки / С.С.Костина, Н.Г. Туманян. // Рисоводство. 2003. №3.С. 49-50.

4. Распространение болезни «мучнистая роса» на бахчевых культурах и меры борьбы с ней. ХХ Нуралиев, МБ Расулова - Актуальные проблемы современной науки, 2020

5. Stem rot disease in sweet pepper in andijan region. D Aznabakieva, M Rasulova, M Rakhimova - Science and innovation, 2023

SHOLINING TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKISH MUDDATLARI, EKISH SXEMASI VA KO‘CHAT SONINI BARG SATHIGA TA’SIRI

Sidiqov Eldorbek Ne’matjon o‘g‘li
Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada kuzgi bug‘doydan keyin takroriy ekin sifatida sholining “Guljaxon” va “Iskandar” navlarini ko‘chat usulida yetishtirishda sholi o‘simligini o‘sishi, rivojlanishi va hosilini shakllanishiga ekish muddati va sxemalarining ta’siri haqida ma’lumotlar berilgan.

Аннотация: В данной статье приведены сведения о влиянии сроков и схем посева на рост, развитие и урожайность растений риса при рассадном возделывании сортов риса «Гульджахан» и «Искандар» в качестве повторной культуры после озимой пшеницы.

Annotation: This article provides information on the effect of planting time and schemes on the growth, development and yield of rice plants in the seedling cultivation of "Guljakhan" and "Iskandar" varieties of rice as a repeated crop after winter wheat.

Kalit so‘zlar: sholi, o‘simlik, “Guljaxon” navi, “Iskandar” navi, ekish, ko‘chat usuli, sxemasi, ko‘chat soni, o‘simliklarning o‘sishi, rivojlanishi, hosildorlik.

Mavzuning dolzarbligi. Don mahsulotlari, ayniqsa, sholi qadimdan xalqimiz uchun rizq-ro‘z, to‘kin-sochinlik ramzi bo‘lib kelgan. U nafaqat zarur oziq-ovqat mahsulotlaridan biri, balki inson organizmining uglevod va oqsillarga bo‘lgan talabini qondirish manbai, chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik kabi sohalarning asosiy ozuqasi hamdir.

Prezidentimizning 2021 yil 2 fevraldagi “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori xalqimiz uchun, eng avvalo, ana shu maqsadga xizmat qilib, dasturxonining to‘kinligini ta’minlashga yanada keng yo‘l ochayotgani bilan muhim. Buning uchun sholi yetishtirish tizimini

takomillashtirish, ichki iste’mol bozorini guruch mahsulotlari bilan barqaror ta’minlash va eksport salohiyatini oshirish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish hamda suvni tejaydigan texnologiyalarni keng qo‘llashni ta’minlash zarur bo‘ladi.

Dunyo dehqonchiligida keyingi yillarda sholi don hosildorligini oshirishda yangi innovatsion resurstejamkor texnologiyalarni ilmiy asoslangan holda qo‘llash, bir yilda ikki yoki uch marta hosil olish borasida jadal tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu nuqtai nazardan, sholidan ekologik toza, mo‘l va sifatli mahsulot yetishtirish uchun mavjud texnologiyalarni takomillashtirish, aniq qishloq xo‘jaligi yuritish tizimiga alohida e’tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzgi boshoqli don va boshqa ertaki ekinlardan bo‘shagan maydonlardan samarali foydalanish, sholi navlari ko‘chatlarini oqilona ekish muddati, sxemasi va ko‘chat sonini aniqlash, agrotexnika elementlarini maqbullashtirish, muhim nazariy va amaliy dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi: sholichilikda qishloq ho‘jaligini aniq yuritish tizimini rivojlantirish maqsadida kuzgi bug‘doydan keyin takroriy ekin sifatida sholining “Guljaxon” va “Iskandar” navlarini ko‘chat usulida yetishtirishda sholi o‘simligini o‘sishi, rivojlanishi va hosilini shakllanishiga ekish muddati va sxemalarining ta’sirini aniqlashdan iborat.

Dala tajribalari 2022 yilda Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti huzuridagi axborot maslahat markazi (Extetion sentir) DUK o‘quv tajriba xo‘jaligi dalalarida olib borildi.

Sholi o‘simligi boshqa g‘alla don ekinlarga nisbatan yorug‘likka juda talabchan o‘simlik hisoblanadi. Uning fotosintetik faoliyati juda yuqori bo‘lib, xlorofillning maksimal konsentratsiyasi vegetativ xolatiga o‘tishida namoyon bo‘ladi. Past fotosintetik faoliyat sholida rivojlanish davrlarining gullash va mum pishish davrida sodir bo‘ladi. Eng yuqori fotosintez jadalligi tuplanish davri-donning to‘lishish davriga to‘g‘ri keladi va bu holat o‘simlik barg yuzasining qancha katta yoki kichik bo‘lishiga bog‘liq bo‘ladi. O‘simlikning barg yuzasini me’yorda bo‘lishi fotosintez

jarayonini aktiv, yaxshi kechishiga sabab bo‘ladi, har bir o‘simlik uchun kerakli barg yuzasini hosil bo‘lishiga olib keladi.

Qishloq xo‘jalik ekinlarining jami, hamma turlarida ham, masalan, sholida ham barg sathining katta bo‘lishi o‘simlikning o‘sish dinamikasiga bevosita bog‘liq hisoblanadi. O‘simlik barglarining vazifasi faqatgina assimilyatsiya jarayonini o‘tabgina qolmasdan, uning hosildorligini oshirishga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi deb ma’lumot bergan (1989) S.K.De Datta [1; 143-169].

O‘zShITI olimlari tomonidan 2012 yilda ishlab chiqilgan ko‘pgina tavsiyanomalarida ma’lumot beril ishicha, sholi o‘simligiga berilayotgan mineral va organik o‘g‘itlar har bir rivojlanish davrlarga bo‘lib, tabaqalashtirilib berib borilsa o‘simliklarda o‘g‘itlarni yaxshi o‘zlashtirib, barg sathini ortishiga sabab bo‘ladi va hosildorlikka ham ijobiy ta’sirini ko‘rsatadi deb ta’kidlagan [3].

Q.K.O‘razmetovning 2012-2014 yilarda Toshkent viloyatida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida sholi o‘simligining «UzROS-7-13» navini tuplanish fazasida bir o‘simlikdagi barg sathi 194,2-201,7 sm^2, ro‘vaklash fazasida 273,5-282,9 sm^2, pishish fazasiga kelib 199,6-206,5 sm^2 ni tashkil etganligi, sholining ro‘vaklash fazasidan mum pishish fazasigacha fotosintez sof mahsuldorligi oshib borishi, maydon birligidagi o‘simlik tup qalinligining oshib borishi bilan fotosintez sof mahsuldorligi kamayib borishini ta’kidlagan [2; 23-24].

Hind olimlari G.Raghavan Pillai va C.M.Georgelarning xulosalarida ham sholini ko‘chat usulida 10x10 sm sxemada ekilganda mahsuldor poyalar soni yuqori bo‘lgani bilan ro‘vakdagi to‘liq pishgan donlar soni 7-9 donagacha kamayib ketgan. Sholini ko‘chat usulida yetishtirganda ko‘chat qalinligi har bir joyning tuproq-iqlim sharoitlaridan, ekiladigan navidan kelib chikishi kerak. Sholi yetishtiruvchi davlatlar, ya’ni Hindiston, Xitoy va boshqa davlatlarning tajribalariga ko‘ra sholi ko‘chatini qalin ekilishi hosildorlikni 15-20 s/ga oshirishning eng oddiy usuli hisoblanadi deb ta’kidlagan [4; 38-42].

Tajribada sholi o‘simligi barg sathini hisoblash uchun qabul qilingan quydagi formuladan foydalanildi.

$S=L \times H \times 0,802\ sm^2$

Bu yerda, S= bir o‘simlik barglari sathi, (sm^2);

L = barglar uzunligi, (sm); H = barglar eni, (sm);

0,802 = barg sathini hisoblash uchun tuzatish koeffitsienti.

Vishnu M. Bhan and H.K. Pande.

Demak, tadqiqotchilarning tajribalaridan ko‘rinib turibdiki, sholi o‘simligining yaxshi o‘sib rivojlanib, ekologik toza, mo‘l va sifatli hosil berishida uning organlaridan biri bo‘lgan barg yuzasi qismining katta bo‘lishi alohida muhim o‘rinni egallaydi.

Tadqiqot ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, iyun oyining uchinchi dekadasida har gektar maydonga 444 ming dona o‘simlik ya’ni 15x15x1 sxemada ko‘chat qilib ekilgan “Guljaxon” navida tuplanish davrida o‘rtacha har bir o‘simlikda barg sathi 73,4 sm^2 ni tashkil etgan.

Har gektar maydonga 666 ming dona o‘simlik 15x10x1 sxemada ko‘chat qilingan variantda bu ko‘rsatkich 73,6 sm^2 ni tashkil qilgan bo‘lsa, har gektar maydonga 444 ming dona o‘simlik bo‘lgan ya’ni 15x15x1 sxemada ekilgan “Iskandar” navi to‘rtinchi variantda tuplash fazasida sholi o‘simligining barg sathi 72,1 sm^2 ni, har gektar maydonga 666 ming dona o‘simlik 15x10x1 sxemada ko‘chat qilingan beshinchi variantda 72,3 sm^2ni tashkil etganligi kuzatildi.

Tajribadan ma’lum bo‘ldiki, sholining tuplanish darajasi yuqori bo‘lganligi hisobiga naychalash va ro‘vaklash fazalarida o‘simlikning barg sathi ortib borgan. Ya’ni iyun oyining birinchi dekadasida har gektar maydonga 444 ming dona o‘simlik bo‘lgan ya’ni 15x15x1 sxemada ko‘chat qilingan “Guljaxon” navida naychalash davrida barg sathi 143,9 sm^2 ni tashkil etgan bo‘lsa, gektariga 666 ming dona o‘simlik bo‘lgan ya’ni 15x10x1 sxemada ko‘chat qilingan to‘rtinchi variantda bu ko‘rsatkich 144,2 sm^2ni tashkil etganligi kuzatildi.

1-jadval

Sholining takroriy ekin sifatida ekish muddatlari, ekish sxemasi va ko‘chat sonini barg sathiga ta’siri (2022 y)

Variantlar	Ekish muddati	Ekish sxemasi	Ko‘chat soni	Barg sathi sm²/o‘simlik			
				Tuplash	Naychalash	Ro‘vaklash	Pishish
1	5.06	Guljahon 15x15x1	444	73,4	143,9	192,4	102,6
2		Iskandar 15x15x1	444	72 ,1	142,4	191,1	101,8
3		Iskandar 15x15x1	444	70,7	141,1	190,2	101,1
4	5.06	Guljahon 15x10x1	666	73,6	144,2	193,6	102,7
5		Iskandar 15x10x1	666	72,3	142,6	192,1	101,5
6		Iskandar 15x10x3	666	71,4	141,7	190,3	999,3

Iyun oyining birinchi dekadasida har gektar maydonga 444 ming dona o‘simlik bo‘lgan ya’ni 15x15x1 sxemada ekilgan “Iskandar” navi, ya’ni to‘rtinchi variantda naychalash fazasida sholi o‘simligining barg sathi 142,4 sm^2 ni, har gektar maydonga 666 ming dona o‘simlik bo‘lgan ya’ni 15x10x1 sxemada ko‘chat qilingan beshinchi variantda 142,6 sm^2 ni tashkil etganligi aniqlandi.

Agar e’tibor beradigan bo‘lsak, ekish muddatlari orasida uncha katta farq bo‘lmadi. Ammo, ekish sxemalari va 1 m^2 dagi ko‘chatlar soni bo‘yicha farqlar sezilgan. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, sholining “Iskandar” navi naychalash davrida har gektar maydonga 444 ming dona o‘simlik bo‘lgan ya’ni 15x15x1 bo‘lgan variantlarda har gektar maydonga 666 ming dona o‘simlik bo‘lgan ya’ni 15x10x1 bo‘lgan variantlarga nisbatan barg sathi 2,1-5 sm^2 yuqori bo‘lgan. Chunki sholining hosildorligi maydon birligidagi ko‘chat soni bilan balki, maydon birligidagi mahsuldor poyalar soni bilan belgilanadi va bu ko‘rsatkich ko‘chat usulida sholi yetishtirishda ham hosildorlikni belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Ma’lum bir maydonda mahsuldor poyalar va unga mos ravishda barglar soni va yuzasi qancha katta va keng bo‘lsa, hosildorlik shuncha yuqori bo‘ladi. Sholining boshqa g‘alla-don ekinlaridan alohida ajralib turadigan xislati bu dala maydonida ko‘chat soni kam bo‘lishiga qaramasdan tuplanish darajasini yuqori bo‘lganligi sababli daladagi hosil beruvchi poyalarning sonini oshishi hosildorlikni ham ortishiga sabab bo‘lishini kuzatdik.

Eng yuqori ko‘rsatkich sholining ro‘vaklash fazasida bir o‘simlikning barg sathi ko‘rsatkichi bo‘lib iyun oyining uchinchi dekadasi har gektar maydonga 444 ming dona o‘simlik bo‘lgan ya’ni 15x15x1 sxemada ko‘chat qilib ekilgan “Guljaxon” navida 192,4 sm^2 ni tashkil etgan. Sholi har gektar maydonga 666 ming dona o‘simlik bo‘lgan ya’ni 15x10x1 sxemada ko‘chat qilingan ikkinchi variantda bu ko‘rsatkich 193,6 sm^2 bo‘lganligi aniqlandi.

Iyun oyining uchinchi dekadasida har gektar maydonga 444 ming dona o‘simlik bo‘lgan ya’ni 15x15x1 sxemada ekilgan “Iskandar” navi ikkinchi variantda ro‘vak chiqarish fazasida sholi o‘simligining barg sathi 191,1 sm^2 ni, gektariga 666 ming dona o‘simlik bo‘lgan ya’ni 15x10x1 sxemada ko‘chat qilingan beshinchi variantda 192,1 sm^2 ni tashkil etdi.

5 iyunda ekilgan sholi o‘simligini barg sathi ko‘chat qilinligidan qat’iy nazar pishish davrida gektariga 444 ming dona/ga bo‘lgan 15x15x1 ekish sxemasidagi “Iskandar” sholi navining ko‘rsatkichlari qolgan har gektar maydonga 666 ming dona/ga bo‘lgan 15x10x1 variantiga nisbatan 1,2-3,8 sm^2 ga yuqori bo‘lgan. Ekish sxemalari va 1 m^2 dagi ko‘chatlar soni bo‘yicha farqlar sezilgan. Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, sholining “Iskandar” navi naychalash davrida ekish sxemasi 15x15x1 bo‘lgan variantlarda ekish sxemasi 15x10x1 ga nisbatan barg sathi 2,1-5 sm^2 yuqori bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. De Datta, S.K.Integrated nitrogen management in irrigated rice. Adv. Soil Sci / S. K. De Datta, R.J. Buresh. -1989.R.143-169.

2. O‘razmetov Q.K., Saimnazarov Yu.B., Qashqaboeva Ch. ToshDAU, UzShITI asosiy ekin sifatida sholini ko‘chat usulida yetishtirishda ko‘chat qalinligining xosildorlikka ta’siri Olima ayollarning fan-texnika taraqqiyotida tutgan o‘rni ilmiy-amaliy anjuman materiallari //Toshkent – 2012.To‘plam.B. 256-261.

3. Egamnazarov. A. P. va boshqalar, O‘zShITI agrotexnika bo‘lim hisobotlari. Xorazm. 2002 y. B.25-34.

4. Raghavan Pillai G. George C.M. Studies on the perbormoinge of rice var JR-8 under vaying lavels of nitrogen and spacind. “ Agr.Res. J. Kerela” 1973. U. N-1. P. 38-42.

MUNDARIJA / TABLE OF CONTENTS / СОДЕРЖАНИЕ

1.	GEOMETRIYALIQ TEOREMALARDI DÁLILLEW BÁRISIN ÚYRETIW E.T.Oteniyazov	4
2.	TARIXIY GEOGRAFIYANING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISH TARIXI Jaksimuratov Azamat Bekmurat uli	10
3.	POTENTIAL PROBLEMS OF THE RAILWAY OF UZBEKISTAN AND POSSIBLE SOLUTIONS TO CURE THEM Masharipov Masud Numondjonovich Umirzaqov Davlatjon Dolimjon o'g'li Ozodboyeva Zebo Zohidjon qizi Asatullayeva Nozima Akromjon qizi	17
4.	THE ROLE OF LISTENING SKILLS IN LEARNING ARABIC AS A SECOND AUTHOR: LANGUAGE Ehsanullah Niazi	27
5.	BAZÍ BIR TOSÍNNANLÍ SHAMALARDÍŃ SANLÍ XARAKTERISTIKALARÍN ÚYRETIWDE MATHCAD DÁSTÚRIN QOLLANÍW METODIKASÍ A. J. Igilikov	40
6.	TEXT AS A CULTURAL PHENOMENON Akramova Gulikhon Islamovna	44
7.	ЖАЛОЛИДДИН ХОРАЗМИЙНИНГ АҚИДА ВА ФИҚҲДА ТУТГАН МАЗҲАБИ Илҳомжон Муроталиевич Ғофуров	51
8.	КЛИНИКО-СТАТИСТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ БОЛЬНЫХ С ОСТРОЙ ТОНКОКИШЕЧНОЙ НЕПРОХОДИМОСТИ, ОКАЗЫВАЮЩИХ ЭКСТРЕННУЮ МЕДИЦИНСКУЮ ПОМОЩЬ Д.Э. Хошимов, Д.Б. Туляганов, Д.Т. Пулатов	56
9.	РОЛЬ ФОЛЬКЛОРА В ФОРМИРОВАНИИ РУССКОЙ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕИ Бабажанова Азиза Рустамовна	65
10.	SHAMSUDDIN ZAHABIYNING "DUVAL AL-ISLAM" ASARIDA TURONNING VIII ASARDAGI TARIXI BAYONINING O'ZIGA XOSLIGI Javohir Zafarzoda	72
11.	GULJAHON NAVLI SHOLINI EKISH SXEMASINI XOSILDORLIKKA TA'SIRI To'xtasinova Gulnora Mahmudjon qizi	79
12.	SHOLINING TAKRORIY EKIN SIFATIDA EKISH MUDDATLARI, EKISH SXEMASI VA KO'CHAT SONINI BARG SATHIGA TA'SIRI Sidiqov Eldorbek Ne'matjon o'g'li	84

Eslatma! **“Interpretation and researches”** xalqaro ilmiy jurnaliga kiritilgan maqolalardagi raqamlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

International scientific journal

“Interpretation and researches”

xalqaro ilmiy jurnal

2023-yil 13-son

© Mualliflar jamoasi, 30.08.2023. 92 bet.
© O‘zbekiston Respublikasi, Farg‘ona viloyati
© interpretationandresearches.uz